XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 17 - oktabr VI-61-137-10-0-K/22 Toshkent viloyati hokimiligi

“O‘zbekiston” MChJ XKning ichimlik suvi yetkazib berish xizmatlariga narx hisob-kitoblari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirsh hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6074-sonli farmoniga asosan viloyatda ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari tariflarini tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6074-sonli farmoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zbekiston” MChJ XK tomonidan ishlab chiqilgan ichimlik suvi yetkazib berish xizmatlariga narx hisob-kitoblari ilovaga muvofiq ma’qullansin.

Bunda O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasining 2022-yil 12-apreldagi T-11-01/03-1475-sonli hamda viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 14-apreldagi 01-20/27-05-32/1330-sonli xatlari inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining matbuot kotibi-axborot siyosati masalalari bo'yicha

maslahatchisi B.Qabulov mazkur qarorni “Toshkent haqiqati”, “Tashkentskaya pravda” gazetalarida va hokimlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilinishini ta’minlasin.

4. “O‘zbekiston” MChJ XK belgilangan narxlarni asossiz oshirib yubormaslik uchun shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Axmadali Xudoybeganov hamda viloyati hokimining shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Barhayot Meliyev zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi **Z.Mirzayev**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat
Kengashining
2022 yil 17 oktabrdagi
VI-61-137-10-0-K/22-son qaroriga
1-ilova

“O‘zbekiston” MChJ XK tomonidan ichimlik suvi yetkazib berish uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlari (tariflar)

№	Xizmat turi	Amaldagi narx (tarif) (so‘m)	Amaldagi narx (tarif) (so‘m) (QQS bilan)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m) (QQS bilan)
Ichimlik suvi narxi					
1	Hisobdon asosida sotish uchun	122	x	670	x
2	Hisobdon mavjud bo‘lmagan taqdirda	122	122	1 005	1005
3	Budjet korxonalari uchun	490	563,5	1 400	1610
4	Ulgurji iste’molchilar uchun	490	563,5	1 400	1610